


## II. SANOAT

### Qoraqalpog‘iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi

(2021 yil yanvar-dekabr)



2021 yilning yanvar-dekabrda 16 621,3 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, sanoat ishlab chiqarish indeksi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 107,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush sanoat mahsulotlarin qayta ishlaydigan korxonalar hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 85,5 % ni tashkil etdi.

Statistik hisob-kitoblar bo‘yicha joriy yilning yanvar-dekabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 2 398,7 mlrd. so‘m miqdorida (jami sanoat mahsulotlari hajmining 14,4 foizi)ga baholandi va sanoat ishlab chiqarish indeksi o‘tgan yilga nisbatan 91,9 foizni tashkil etdi.


Shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar va uy xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 1323,2 mlrd. so‘m miqdorida (8,0 foiz) hisob-kitob qilindi.

Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo‘lib, ishlab chiqarish hajmi 14 206,9 mlrd. so‘m bo‘lib, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 85,5 foizni tashkil etdi.


Shuningdek, hisobot davrida jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash faoliyat turi bo‘yicha 2 194,4 mlrd. so‘m (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 13,2 %), suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish faoliyat turlari bo‘yicha 95,1 mlrd. so‘m (0,6 %) hamda tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash faoliyat turi bo‘yicha 124,9 mlrd. so‘m (0,7 %) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

Sanoat ishlab chiqarishning o‘shishiga elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalari ham munosib hissa qo‘shdi, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 13,2 foizni tashkil etdi.

**Yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarish hajmi va o‘shish sur‘ati**



**2021 yilning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi**



**Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha  
sanoat mahsulotini ishlab chiqarish**

	<i>mld. so‘m</i>		<i>fizik hajm indeksi, %</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, foiz hisobida</i>	
	<i>2020 y.</i>	<i>2021 y.</i>		<i>2020 y.</i>	<i>2021 y.</i>

**Iqtisodiy faoliyatning alohida  
turlari bo‘yicha sanoat  
mahsulotlarini ishlab  
chiqarish hajmi**

**13 981,3    16 621,3    107,4    100,0    100,0**

*iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha:*

**Tog‘-kon sanoati va ochiq  
konlarni ishlash**

**154,0    124,9    47,7    1,1    0,7**

*ulardan:*

Tog‘-kon sanoatining boshqa  
sohalari

103,2    116,2    58,1    0,7    0,69

Yopiq usulda qazishga texnik  
yordam ko‘rsatish

50,8    8,7    17,4    0,4    0,05

**Qayta ishlash sanoati**

**12 193,6    14 206,9    104,2    87,2    85,5**

*undan:*

Oziq-ovqat mahsulotlari,  
ichimliklar va tamaki  
mahsulotlarini ishlab chiqarish

2142,7    2294,7    102,2    15,3    13,8

To‘qimachilik mahsulotlari,  
kiyimlar, teri va unga tegishli  
mahsulotlar ishlab chiqarish

1687,2    2069,5    104,7    12,1    12,4

Yog‘och va po‘kak buyumlar,  
pohol va to‘qish uchun  
materiallardan buyumlar,  
qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari,  
mebellar ishlab chiqarish

137,0    183,5    119,7    1,0    1,1

Yozilgan materiallarni nashr  
qilish va aks ettirish

1,9    5,5    291,5    0,01    0,03

*davomi*


	<i>mlrd. so‘m</i>		<i>fizik hajm indeksi, %</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, foiz hisobida</i>	
	<i>2020 y.</i>	<i>2021 y.</i>		<i>2020 y.</i>	<i>2021 y.</i>
Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	7345,6	8838,1	105,8	52,5	53,2
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish	11,6	11,3	67,0	0,1	0,1
Asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	72,7	39,7	54,6	0,5	0,2
Boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	443,2	433,8	95,9	3,2	2,6
Metallurgiya sanoati	2,7	6,3	205,7	0,02	0,04
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	32,0	62,8	176,4	0,2	0,4
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	143,3	101,8	61,8	1,0	0,6
Elektr uskunalari ishlab chiqarish	114,0	77,1	56,9	0,8	0,5
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish	3,4	1,6	41,9	0,02	0,01
Mashina va uskunalari ta'mirlash va o'rnatish	4,3	20,6	440,6	0,03	0,1
Avtotransport vositalari, boshqa transport uskunalari, boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish	52,0	60,6	120,1	0,4	0,4
<b>Elektr, gaz, bug‘ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash</b>	<b>1558,9</b>	<b>2194,4</b>	<b>139,7</b>	<b>11,2</b>	<b>13,2</b>
<b>Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish</b>	<b>74,8</b>	<b>95,1</b>	<b>77,3</b>	<b>0,5</b>	<b>0,6</b>

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 124,9 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 foizini tashkil etdi.


Tog‘-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo‘yicha ohaktosh qazib olish hajmi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 27,8 foizga, gaz kondensati 19,0 foizga va tabiiy gaz 26,3 foizga pasayganligini kuzatish mumkin.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**  
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)

**2020 yil yanvar-dekabr**



**2021 yil yanvar-dekabr**



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha  
sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish**  
(yirik korxonalar bo‘yicha)

	o‘lchov birligi	yanvar-dekabr oylarida		2020 yilga nisbatan, % hisobida
		2020 y.	2021 y.	

<b>Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash</b>				
Tabiiy gaz ishlab chiqarish	<i>mln.m.kub</i>	2641,5	1947,8	73,7
Ohak tosh	<i>ming tn.</i>	237,1	171,1	72,2
Chaqiq tosh (sheben)	<i>ming tn.</i>	-	-	-

davomi

	o‘lchov birligi	yanvar-dekabr oylarida		2020 yilga nisbatan %, hisobida
		2020 y.	2021 y.	
<b>Qayta ishlash sanoati</b>				
Aroq mahsulotlari	ming l. 100% spirt	3686,9	3994,5	108,3
Yumshoq bug‘doy va spelta uni	ming tn.	92,5	88,5	95,7
Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar	tn.	210,8	42,2	20,0
Birinchi navli undan tayyorlangan bug‘doy noni, og‘irligi 600 g. (buxanka)	tn	527,7	232,2	44,0
Guruch mahsulotlari	tn	10688,4	4257,4	39,8
Tozalangan paxta yog‘i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)	tn.	11425,4	6565,5	57,5
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor omuxta yem mahsulotlari	ming tn.	47,0	45,4	96,6
Paxta tolasi	ming tn.	45,8	35,3	76,9
Paxta chigiti	ming tn.	72,8	56,1	77,0
Paxta tiviti (lint)	tn.	2973,2	3211,2	108,0
Asosiy noorganik kimyoviy moddalar (dinatriy karbonati)	ming tn.	185,3	184,8	99,8
Polietilen	ming tn.	354,5	304,9	86,0
Polipropilen	ming tn.	97,6	87,1	89,2
<b>Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash</b>				
Ishlab chiqarilgan elektr energiyasi	mln.kVt/s	4387,0	5213,2	118,8
Bug‘ va issiq suv (issiqlik energiyasi)	ming Gkal.	46,0	62,6	136,2

	o‘lchov birligi	yanvar-dekabr oylarida		2020 yilga nisbatan, % hisobida
		2020 y.	2021 y.	


**Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish**

Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash xizmatlari	mln. so‘m	41656,1	61019,0	146,5
Oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar	mln. so‘m	6029,1	7731,6	128,2

2021 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 14 206,9 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 85,5 % tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,0 foizni, o‘rta-yuqori texnologiyali 62,2 foizni, o‘rta-quyi texnologiyali 4,3 foiz va quyi texnologiyali 32,5 foizni tashkil etdi.

**2021 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi**



O‘z navbatida, ishlab chiqaradigan sanoatda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan aroq 8,3 foizga oshgan bo‘lsa, guruch 60,2 foizga, yumshoq bug‘doy uni 4,3 foizga, bug‘doy noni 56,0 foizga, makaron mahsulotini ishlab chiqarish o‘tgan yilga nisbatan 80,0 foizga, porlandtsement 2,6 foizga pasayganligini kuzatish mumkin.

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2194,4 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 13,2 foizni) tashkil etdi.

Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 95,1 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 foizni) tashkil etdi.

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash xizmatlarining 46,5 foizga, oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlarning 28,2 foizga oshganligi kuzatildi.

### **Iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish**


2021 yilning yanvar-dekabr oylarida 3000,6 mlrd. so‘mlik iste‘mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2020 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 106,1 foizni tashkil etdi. Jumladan, 1622,8 mlrd.so‘mlik oziq-ovqat mahsulotlari (106,4 foiz), 167,4 mlrd.so‘mlik vino-arok mahsulotlari (110,3 foiz) va 1210,4 mlrd. so‘mlik nooziq-ovqat mollari (2020 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 105,1 foiz) ishlab chiqarildi.

#### **Yanvar-dekabr oylarida iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish**


	<i>mlrd. so‘m</i>		<i>jamiga nisbatan ulushi, foiz hisobida</i>	
	<i>2020 y.</i>	<i>2021 y.</i>	<i>2020 y.</i>	<i>2021 y.</i>
<b>Iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish</b>	<b>2 804,2</b>	<b>3 000,6</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>				
oziq-ovqat tovarlari	1605,0	1790,2	57,2	59,7
nooziq-ovqat tovarlari	1199,2	1210,4	42,8	40,3



**2021 yilning yanvar-dekabr oylarida iste‘mol tovarlari  
ishlab chiqarish hajmi va o‘shish sur‘atlari**



**Yirik va kichik biznes subyektlari tomonidan iste‘mol tovarlari  
ishlab chiqarish tarkibi, jamiga nisbatan foiz hisobida**




### **Shahar va tumanlar bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulushi Nukus shahri (jami ishlab chiqarish hajmining 54,8%), Taxiatoş (13,7%), Qo‘ng‘irot (4,4 %), Amudaryo (3,2 %), To‘rtko‘l (3,0 %), Beruniy (2,9 %), Ellikqal‘a (2,4%) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Shuningdek, iste‘mol tovarlari hajmining eng katta qismi Nukus shahri (jami iste‘mol tovarlari hajmining 21,1 %), Taxiatoş (11,4 %) To‘rtko‘l (8,1 %), Ellikqal‘a (7,9 %), Beruniy (7,3%), Amudaryo (7,1%), Qo‘ng‘irot va Xo‘jayli (6,2 %) tumanlarida ishlab chiqarildi.

### **Shahar va tumanlar bo‘yicha iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi**

*(respublika bo‘yicha jamiga nisbatan foiz hisobida)*




**2021 yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha sanoat mahsulotlari va iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari**

	<i>sanoat mahsulotlari, mlrd. so‘m</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, %</i>	<i>iste‘mol tovarlari, mlrd. so‘m</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, %</i>
<b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b>	<b>16621,3</b>	<b>100,0</b>	<b>3000,6</b>	<b>100,0</b>
Nukus sh.	9108,6	54,8	632,4	21,1
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	534,6	3,2	211,6	7,1
Beruniy	485,9	2,9	217,8	7,3
Bo‘zatov	139,0	0,8	15,6	0,5
Qonliko‘l	322,6	1,9	38,5	1,3
Qorao‘zak	305,7	1,8	76,4	2,5
Kegeyli	295,3	1,8	66,8	2,2
Qo‘ng‘irot	734,2	4,4	187,4	6,2
Mo‘ynoq	191,2	1,2	45,8	1,5
Nukus	290,6	1,8	57,7	1,9
Taxiatosh	2270,5	13,7	341,7	11,4
Taxtako‘pir	209,2	1,3	123,8	4,1
To‘rtko‘l	504,7	3,0	241,6	8,1
Xo‘jayli	380,4	2,3	186,1	6,2
Chimboy	258,8	1,6	146,9	4,9
Shumanay	187,3	1,1	174,6	5,8
Ellikqal‘a	402,7	2,4	235,9	7,9

**Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va  
iste‘mol tovarlarini ishlab chiqarish**

	<i>Ishlab chiqarish hajmi, aholi jon boshiga, ming so‘m</i>	
	<i>sanoat mahsulotlari</i>	<i>iste‘mol tovarlari</i>
<b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b>	<b>8584,9</b>	<b>1549,8</b>
Nukus sh.	27898,8	1936,9
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	2632,7	1042,2
Beruniy	2479,8	1111,5
Bo‘zatov	6380,2	717,0
Qonliko‘l	6198,4	740,3
Qorao‘zak	5719,7	1429,2
Kegeyli	4022,1	910,4
Qo‘ng‘irot	5555,0	1417,6
Mo‘ynoq	5849,3	1401,4
Nukus	5642,8	1119,6
Taxiatosh	30231,2	4549,0
Taxtako‘pir	5163,6	3055,9
To‘rtko‘l	2301,2	1101,5
Xo‘jayli	3045,2	1489,8
Chimboy	2277,2	1292,6
Shumanay	3299,0	3074,9
Ellikqal‘a	2466,2	1445,0

**2021 yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan  
sanoat mahsulotlari va iste‘mol tovarlarini ishlab chiqarish hajmlari,  
ming so‘mda**



### **2021 yilning yanvar-dekabr oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish**

Tarmoqlar aro sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish doirasida tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2021 yilning yanvar-dekabr oylarida 1553,9 mlrd. so‘mlik mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish hajmlarining o‘sishi bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo‘lgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni o‘sishining va import tovarlari qisqarishining omillaridan biri hisoblanadi.

#### **Mahalliyashtirish dasturining asosiy ko‘rsatkichlari**

	<i>2020 yil yanvar-dekabr</i>	<i>2021 yil yanvar-dekabr</i>
Loyihalar soni, <i>birlik</i>	35	59
Korxonalar soni, <i>birlik</i>	29	49
Ishlab chiqarish hajmi, <i>mlrd.so‘m</i>	363,6	1553,9
Eksport qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, <i>mln. AQSh doll.</i>	8,8	25,6
Yaratilgan yangi ish o‘rinlari, <i>birlik</i>	538	234

#### **Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 9583,9 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Qo‘shma korxonalarining sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 57,7 foizni tashkil etdi.